

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISMAILOV JONIBEK BAXADIROVICH

**RUX ISHLAB CHIQRISH TEXNOGEN CHIQINDILARINI QAYTA
ISHLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi (quymachilik va metallarga ishlov berish yo‘nalishi)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по технических наук**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on Technical Sciences**

Ismailov Jonibek Bahadirovich

Rux ishlab chiqarish texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish.....3

Исмаилов Жанибек Бахадирович

Усовершенствование технологии переработки техногенных отходов цинкового производства.....24

Ismailov Jonibek Bakhadyrovich

Improvement of technology recycling technogenic wastes of zinc production.....46

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works50

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISMAILOV JONIBEK BAXADIROVICH

**RUX ISHLAB CHIQRISH TEXNOGEN CHIQINDILARINI QAYTA
ISHLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi (quymachilik va metallarga ishlov berish yo‘nalishi)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B 2022.3.PhD/T3102 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Berdiyarov Bahriddin Tilovqabulovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Norxudjayev Fayzulla Ramazanovich
texnika fanlari doktori, professor

Samadov Alisher Usmanovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

MTTU "MISiS"ning Olmaliq filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "08" noyabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 2-uy. Tel/faks.: (99871)277-10-32, e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (47 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 2-uy. Tel/faks.: (99871)277-10-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "23" oktabrda tarqatildi.
(2025 yil "10" oktabrdagi 193 raqamli ryestr bayonnomasi).

K.A. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.B. Tashbulatov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

N.D. Turaxodjayev

Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy
darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rux ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan texnogen chiqindilarni qayta ishlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashda ularning tarkibida mavjud bo'lgan metallarni tejash va ulardan ruxni ajratib olish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda rux ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish asosida gidrometallurgik usulda eritish orqali ruxni eritmaga o'tkazishda sodir bo'ladigan fizik-kimyoviy jarayonlarni tadqiq qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada dunyoda keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan AQSh, Yaponiya, Rossiya, Avstraliya, Shvetsiya, Xitoy, Peru, Hindiston, Meksika va Kanada kabi mamlakatlarda rux ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan texnogen chiqindilarini qayta ishlashda ruxning qoldiq kekdan ajratib olishga, ularga ishlov berishda gidrometallurgik va termik usullarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda rux ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlashda kombinatsiyalashgan usul, ya'ni dastlab pirometallurgik, so'ng gidrometallurgik qayta ishlash usullariga asoslangan texnologiyalarni takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, rux keklarini uglerod saqlovchi qattiq tiklovchilar bilan tiklash, sulfatlovchi kuydirish, ruxlangan temir va rux boyitmasi bilan tiklash, suv bug'i ishtirokida kuydirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, sianidsiz ishlov berish asosida nodir metallarni ajratib olish, yuqori haroratli tanlab eritish, flotatsiya usulida boyitib so'ng kuydirish va pechning issiqlik texnik rejimini takomillashtirish, tiklovchi kuydirishning kinetik rejimini o'zgartirishni modellashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda dunyo olimlari tomonidan gazzimon tiklovchilar yordamida past haroratlarda kuydirish hamda uglevod yordamida eritish usulini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda rux ishlab chiqarish uchun foydalanilayotgan boyitmalarni davriy yetkazib berilayotgan bir vaqtda, uni uzluksiz ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirish orqali undan ruxni ajratib olish unumdorligini oshirish, boyitma tarkibidagi rux va boshqa qimmatbaho elementlarni chiqindilar bilan yo'qolishini oldini olish chora tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida jumladan "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish, metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash, chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni ekologik talablar doirasidan oshmasligini ta'minlash, rux va misni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko'paytirish" ga yo'naltirilgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, rux ishlab chiqarishning metall tarkibli texnogen chiqindilarini qayta ishlashning yangi energiya va resurs tejamkor usullarini ishlab chiqish va mavjud

usullarni takomillashtirish, jumladan rux keklarini qayta ishlashning an'anaviy velsevlash usuliga nisbatan past haroratli va keklarni qattiq tiklovchi tarkibidagi uglerod evaziga emas balki metall oksidlari sirtiga tezroq adsorbsiyalanadigan tiklovchi gazlarni qo'llash evaziga tiklovchi kuydirish orqali qayta ishlash va jarayondan chiqadigan chiqindi gazlarning miqdorini kamaytirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ¹2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 – son Farmoni, 2022-yil 24-yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora tadbirlari" to'g'risidagi PQ-99-son Qarori, 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmoni, 2018 yil 27 apreldagi "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3682-sonli Prezident Qarori, 2021 yil 24-iyundagi PQ-5159-son "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rux ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan keklarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish borasida Dunyo olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Yetakchi xorijiy olimlar, jumladan Jiang G., Peng B., Liang Y., Chai L., Wang Q., Li Q., Hu M. lar kekni sulfatlovchi kuydirish orqali qayta ishlab, so'ng tanlab eritish orqali rux, marganes, mis, kadmiy kabi metallarni ajratib olish texnologiyasini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Dusan D., Milos B., Dragan V., Lucheva B., Iliev P., Stefanova V., Angelov T., Yankova T., Ranchev M., Valchanova I., Grigorova I., Nishkov I. lar olib brogan ilmiy tadqiqot ishlari rux ishlab chiqarish keklarini gidrometallurgik usulda siyansiz qayta ishlashga qaratilgan. Natijada velslashga yuboriladigan kek tarkibida kumush, mis, qo'rg'oshinni miqdorini kamaytirishga erishilgan. Li M., Peng B., Chai L., Wang J., Peng N., Yan H. tiklovchi moddalarni qo'llab rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlash usulini ishlab chiqishgan, natijada ferrit strukturasi parchalab temirni magnitli usulda ajratish orqali kuydirish pechlarida hosil bo'ladigan qoldiq mahsulot sifatini yaxshilashga erishilgan.

Rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish ustida ilmiy ishlar olib borgan MDH olimlari Klyayn S.E., Kazlov P.A.,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 –son Farmoni

Naboychennko S.S., Shivrín G.N., Kazanbaev L.A.lar tomonidan keklarni tiklovchi kuydirish pechlarining issiqlik-texnik rejimlarini o'zgartirish orqali ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga erishilgan. Pan'shin M.A., Anisimova O. S., Mamyachenkov S. V., Rogozhnikov D. A.lar rux keklarini Velslash natijasida olingan kuyindini tanlab eritish davrida yo'ldosh elementlarning eritmaga o'tishining kinetik qonuniyatlarini aniqlash orqali temir, mis va qo'rg'oshin oksidlarini tanlab eritishning yuqori ko'rsatkichlariga erishgan. Maltsev V.A., Viduet'skiy M.G., Panshin A.M., Purgin A.P., Garifulin I.F. va Geyxman V.V.lar rux keklarini velslashdan oldin flotatsiyalash orqali boyitib, qisman ruxni, kumushni va sulfid xolidagi oltingugurtni ajratib olishga erishgan. Shuningdek, rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan Holikulov D.B., Yakubov M.M., Abdukadirov A.A., Mamatkulov N, Muxametdjanova Sh.A., va boshqalar tomonidan rux keklarini yuqori haroratli tanlab eritish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Abdurahmonov S., Turapova M.S., Abdukarimova N., Holikulov D.B., Samadov A.U., Boltayev O., va boshqalar rux keklarini suv bug'i ishtirokida kuydirish orqali undagi qimmatbaho komponentlarni ajratib olishni osonlashtirishning optimal parametrlari aniqlangan.

Rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlash jarayonini takomillashtirish borasida garchi ko'plab ilmiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, hali yechimini topmagan muammolar anchagina. Rux keklarni gidrometallurgik tanlab eritishda temirning ko'p miqdorda cho'kishi va uni qayta ishlash uchun alohida texnologiya talab etilishi, kekni neytral tanlab eritishda temirning oksidlanishi va cho'kishi rux sulfat eritmasini mayin gidrolitik tozalash natijasida olinadigan cho'kmaning xususiyatlariga, filtrlanishiga, jarayonning kinetikasiga va cho'ktirish jarayonining texnologik ko'rsatkichlariga salbiy ta'siri, siyansiz tanlab eritishda kekdagi oltinning cho'kmada qolib ketishi, shpinel birikmali rux ferritini pirometallurgik qayta ishlash jarayonlarida ko'p miqdorda energiya va mablag' sarflanishi hamda, keklarni metallurgik pechlarda tiklash jarayonida klinker hosil qilmasdan kekdagi foydali va qimmatbaho komponentlarni ajratib olish usulini ishlab chiqish lozim. Kekni qayta ishlashda ferritlar va silikatlarini parchalab (suyuq qatlam) klinker hosil bo'lishini oldini oluvchi omillar yetarlicha aniqlanmagan. Yuqorida keltirilgan muammolar yechimini topish uchun kek-tiklovchi sistemasida ferritlarni maksimal parchalab miqdorini minimallashtirish, kekdagi ruxning miqdorini maksimal darajada kamaytirish, qo'llaniladigan tiklovchi moddalar tan-narxining qimmatligi sababli rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlashning nisbatan samaraliroq texnologiyasini ishlab chiqish yoki mavjud texnologiyalarni yanada takomillashtirish uchun tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AL-592102410 sonli "Fazalararo mikro-/nano pufakli guruhlar asosida minerallarni flotatsiyalashda konditsiyalashning samarali texnologiyasi va uskunalarni tadqiq etish" (2023) mavzusidagi, 63-172 yur x/sh 5/20 raqamli "Noyob, tarqoq, nodir, rangli va qora metallar resurslarini aniqlash uchun "Olmaliq

KMK” AJ ikkilamchi texnogen hosilalarning moddiy tarkibining tahlili” (2020-2021 yy.) mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi, hamda “Metallurgiya” kafedrasida kunning ikkinchi yarmida professor-o‘qituvchilari tomonidan bajariladigan “Ikkilamchi texnogen chiqindilar va mahalliy mineral xomashyolarni qayta ishlashda resurs va energiya tejamkorlikni ta’minlaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: rux ishlab chiqarish texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

rux ishlab chiqarish texnogen chiqindi kekining xossasi va uni qayta ishlashning mavjud texnologiyalari bo‘yicha ma’lumotlarni analitik tahlil qilish;

rux kekidan rux va boshqa qimmatbaho komponentlarni ajratib olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida mahalliy tiklovchi gazlarning kukunsimon kek bilan turli haroratlarda o‘zaro tasirlashish jarayonida ferritning parchalanish darajasini o‘rganish;

energetik gazlar tarkibidagi tiklovchi gazlarning kek tarkibidagi shpinel tuzilishli ferritlarni tiklab kuchsiz selektiv tiklovchi muhitni ta’minlash uchun gazlarning sarfini va kuydirish davomiyligini aniqlash;

rux keklarini kuchsiz tiklovchi muhitda kuydirish natijasida hosil bo‘lgan kuyindini past haroratli va kuchsiz kislotali muhitda tanlab eritishning optimal ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sulfidli rux boyitmalarini oksidlovchi kuydirish natijasida olingan kuyindini neytral tanlab eritishda hosil bo‘ladigan texnogen chiqindi keklar va tarkibida tiklovchi gazlar saqlagan mahalliy energetik gazlar hamda uglerod saqlagan qattiq tiklovchilar.

Tadqiqotning predmeti rux ishlab chiqarish unumdorligini oshirish maqsadida qoldiq keklarni pirometallurgik usul orqali dastlabki selektiv tiklash yo‘li bilan ishlov berib, so‘ng hosil bo‘lgan kuyindini gidrometallurgik usulda kuchsiz kislotali va past haroratli muhitda tanlab eritish orqali ruxni ajratib olish texnologiyasini takomillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Rux kekini tadqiq etishning zamonaviy, nazariy va eksperimental usullari, granulometrik, termodinamik tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida rux kekining va tiklovchi kuydirishdan olingan kuyindining kimyoviy tarkibi va ulardagi metallarning donadorligi skanerlovchi elektron mikroskoplarda energiya dispersli spektroskopiya va titrimetrik usullari qo‘llanilgan. Rux kekining, tiklovchi kuydirish kuyindisining, tanlab eritish qoldig‘ining mineralogik tarkiblarining sifat tahlili rentgen nurli difraktometr usulidan foydalanilgan. Tiklanish jarayonlarining termodinamik qiymatlari FactSage dasturiy ta’minot usuli qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quvur aylanmali pechda tiklovchi gazlar atmosferasida olib borilgan selektiv tiklovchi kuydirish jarayonidan olingan kuyindini past kislotali tanlab eritish usuli eritmaning harorati va konsentratsiyasining o‘zgarishi asosida ishlab chiqilgan;

rux kekidan ruxni ajratib olish usuli tiklovchi energetik gazlarning tiklovchanlik xususiyatlarining haroratga bog‘liq ravishda o‘zgarish dinamikasining kritik nuqtalarini aniqlash asosida ishlab chiqilgan;

rux keki bilan mahalliy energetik gazlar tarkibidagi is gazi, vodorod va metan kabi tiklovchi gazlarni o‘zaro ta’siri natijasida kekning asosini tashkil qiluvchi rux ferriti va sulfatini kuchsiz tiklovchi muhitda tiklashda rux oksidi, magnetit, temir II oksidi va sulfat angidridiga qadar tiklanishi aniqlangan;

tiklovchi gazlar muhitida quruq kukunsimon rux keki qayta ishlanganda, tiklovchi gaz va rux keki sistemasida kekda shpinel tuzilishli ferrit yuzasiga metan va vodorodning 500-590 °C haroratda adsorbsiyalanishi aniqlangan;

tiklovchi kuydirish jarayonidan olingan kuyindini past haroratda kislotali tanlab eritish usuli eritma haroratining o‘zgarishiga ta’sir etadigan kimyoviy reaksiyalarning kechishi oqibatida ajralib chiqadigan issiqlik parametrlari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quvursimon aylanuvchi pechda tarkibida 35% tiklovchi gazlar bo‘lgan energetik gazlardan foydalangan holda rux kekini kuchsiz tiklovchi gazlar muhitda tiklovchi kuydirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tiklovchi kuydirish jarayonida rux keki tarkibidagi rux ferritlarini tiklash uchun kekni qayta ishlash haroratini an’anaviy velsevlash usuliga nisbatan 30 % ga pasaytirish hisobiga 800 °C da selektiv tiklovchi kuydirishning past haroratli usuli ishlab chiqilgan;

kuchsiz tiklovchi muhitda kuydirishdan olingan kuyindini tanlab eritishda eritmaning haroratini 12 % ga, konsentratsiyasini 17g/l ga pasaytirish orqali past haroratli va kuchsiz kislotali (pH=7) tanlab eritish usuli ishlab chiqilgan;

kuyindini tanlab eritishda ruxning eritmaga ajratib olish darajasini 92,8 % ga oshirishga erishish orqali, tanlab eritish qoldig‘idagi ruxning miqdorini 1,65 % dan 1,47 % gacha kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aniq belgilangan vazifalar asosida olingan, rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlashda olib borilgan eksperimental tadqiqotlarning ko‘pligi hamda termodinamik hisoblashlar asosida olingan natijalarga qayta ishlov berilishi, kekda rux, mis, temir, oltin, kumush, kadmiy, qo‘rg‘oshin, kremniy va boshqa komponentlarning kimyoviy tarkibi va mineralogik tuzilishlarining tahlili zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish asosida aniqlangan fizika-kimyoviy xossalarning ko‘rsatkichlari, hamda eksperimental natijalar bilan taqqoslash orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati rux ishlab chiqarish kekini dastlabki tiklovchi kuydirish jarayonida tiklovchilar bilan ta’sirlashishi, bunda dastlab gazsimon tiklovchini ferritning yuzasiga adsorbsiyalanishi so‘ng oksidlangan birikmadan kislorodning ajralishi, shu ajralgan kislorod adsorbsiyalangan is gazi molekulasi bilan birikib karbonat angidrid va yangi faza hosil qilishi, hosil bo‘lgan karbonat angidridining oksid yuzasidan ajralib chiqishi natijasida rux ferritining rux oksidi va magnetitgacha tiklanishi, pechga gazlarni purkashda tiklovchi gazlarning

konsentratsiyasini oshirish bilan qatlamda haroratni oshirmagan xolda ferritlarning tiklanish reaksiyalarini tezlashtirish, rux ishlab chiqarish keklarini tiklovchi gazlar atmosferasida inert muhit hosil qilgan holda kuydirish natijasida kek zarralarining kuyishi va undagi ferritlar miqdorining kamayishi va buning natijasida kekning sochiluvchanligi ortishi va zichligining kamayishi, harorati pasaytirilgan kuydirish jarayonida hech qanday suyuq qatlamning hosil bo'lmashligi, hamda rux ferritidagi ruxning past haroratli va kuchsiz kislotali erituvchi muhitida tanlab eritganda yaxshi eriydigan rux oksidi holatigacha tiklanishi va erimagan temirga boy qoldiqlarning tanlab eritish dastgohi tubiga cho'kishining tezlashishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kekni tiklovchi kuydirish jarayonida kuydirib, olingan kuyindini tanlab eritish orqali qayta ishlab, tarkibidagi ruxni eritmaga ajratib olish darajasining ortishi, keklarni sochiluvchan kukun holida tiklovchi gazlar atmosferasida qayta ishlashda import mahsulot sifatida keladigan koksni qo'llashni butunlay cheklashi va kuydirish haroratini 350 °C ga pasaytirishi, tiklovchi modda sifatida mahalliy tarkibida tiklovchi gazlar saqlagan energetik gazlarning qo'llanilishi esa kekni qayta ishlash uchun ketadigan sarfxarajatlarni kamaytirishi, kekni tiklovchi kuydirishdan hosil bo'lgan kuyindini gidrometallurgik qayta ishlashda haroratni 10-15°C ga pasaytirib tanlab eritishda ruxga nisbatan selektivlikni ta'minlanishi, shuningdek tanlab eritishda hosil bo'lgan ruxsizlangan qoldiqlarni tarkibidagi qimmatbaho komponentlarni ajratib olish uchun mis ishlab chiqarish zavodining konvertorlash jarayoniga yuborilishi, tadqiqotni amalga oshirish uchun hech qanday qo'shimcha dastgohlar talab etilmasligi, rux ishlab chiqarish texnologik sxemasidan chetga chiqilmasligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rux ishlab chiqarish texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

rux keklarini pirometallurgik usulda tiklovchi gazlar atmosferasida qayta ishlash orqali ferritlar strukturasi parchalab, ularni past haroratli kuchsiz kislotada tanlab eritish orqali ruxni ajratib olish ko'rsatkichini oshirish hamda qoldiq mahsulotdan, mis va nodir metallarni ajratib olish usuli "Olmaliq KMK" AJda joriy qilingan ("OKMK" AJ ning 4-noyabr 2024-yildagi № SL-001074 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tarkibida 35% tiklovchi gazlar bo'lgan energetik gazlardan foydalanish hamda tiklovchi kuydirishni 800°C da amalga oshirish imkoni yaratilgan;

quvur aylanmali pechda tiklovchi gazlar atmosferasida olib borilgan selektiv tiklovchi kuydirish jarayonidan olingan kuyindini past kislotali tanlab eritish usuli "Olmaliq KMK" AJda joriy etilgan ("OKMK" AJ ning 4-noyabr 2024-yildagi № SL-001074 sonli ma'lumotnomasi). Natijada eritmaning haroratini 12 % ga, konsentratsiyasini 17g/l ga pasaytirishga erishilgan;

tiklovchi kuydirish kuyindisini tanlab eritishda eritmaning harorati 45 °C, konsentratsiyasi 115 g/l bo'lganda kuyindidagi komponentlarni tanlab eritishning selektivligiga erishildi va ruxning eritmaga ajratib olish darajasi 92,8 % ni tashkil

etadigan usul “Olmaliq KMK” AJda joriy etilgan (“OKMK” AJ ning 4-noyabr 2024-yildagi № SL-001074 sonli ma’lumotnomasi). Buning natijasida, tanlab eritish qoldig‘idagi ruxning miqdorini 1,65 % dan 1,47 % gacha kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda va simpoziumlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta maqola, jumladan 5 tasi Respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, hamda ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishni aprobatsiya qilish ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Rux ishlab chiqarishning zamonaviy ahvoli va rux saqlovchi texnogen chiqindilarni qayta ishlash istiqbollari”** deb nomlangan I - bobida rux ishlab chiqarishning zamonaviy holati va texnologiyalari hamda rux ishlab chiqarish texnogen chiqindi keklarini qayta ishlashning mavjud texnologiyalari va ularni takomillashtirish, kek tarkibidagi qimmatbaho komponentlarni ajratib olish orqali chiqindisiz texnologiyalarini joriy qilishning zamonaviy holati tahlil qilingan. Xorijiy hamda respublikamiz olimlarining tadqiqotlari tahliliga ko‘ra rux boyitmasi tarkibida sulfidli temir saqlovchi minerallarning bo‘lishi va ularni pirometallurgik usulda kuydirishda, jarayonning avtogenligining ortishi haroratning belgilangan darajadan oshib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu esa oksidlovchi kuydirishda ferritlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Kuyindi tarkibidagi ferritlar gidrometallurgik qayta ishlash natijasida cho‘kindi kek sifatida hosil bo‘ladi va bu keklarni hosil bo‘lishini butkul oldini olish amalda imkonsiz hisoblanadi. Ba’zan, tanlab eritishdan so‘ng hosil bo‘ladigan kekning chiqishi kuyindiga nisbatan 35-40% ni tashkil etadi.

Xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra, 2030-yilgacha ruxga bo‘lgan talab 2015-yilga nisbatan 1,4 barobar oshishi taxmin qilinmoqda (Rasm 1.). 2030-yilgacha rux narxining bunday ortishiga rux metallini talab qiladigan yetakchi sohalarini yanada rivojlanishini misol qilib keltirish mumkin(Rasm 2.).

Rux keklarini qayta ishlash bo'yicha adabiyotlar tahlil qilinganda gidrometallurgik, flotatsion, pirometallurgik, ekstraksiya; kombinatsiyalashgan usullari kabi yo'nalishlarga bo'lingan. Gidrometallurgik va ekstraksiya usullari natijasida turli erituvchi va ekstragentlarning qo'llanilishi yuqori kapital xarajatlarni, ko'p miqdorda qoldiq mahsulot to'planishi esa qo'shimcha qayta ishlash usullarini talab etadi. Rux keklarini qayta ishlash bo'yicha adabiyotlar tahlil qilinganda gidro-



Rasm. 1. 2030-yilgacha Jahonda rux iste'molining prognozi



Rasm. 2. Ruxdan foydalanishda uning o'rnini bosuvchi mahsulot amalda deyarli imkonsiz bo'lgan tarmoqlar

metallurgik, flotatsion, pirometallurgik, ekstraksiya; kombinatsiyalashgan usullari kabi yo'nalishlarga bo'lingan. Gidrometallurgik va ekstraksiya usullari natijasida turli erituvchi va ekstragentlarning qo'llanilishi yuqori kapital xarajatlarni, ko'p miqdorda qoldiq mahsulot to'planishi esa qo'shimcha qayta ishlash usullarini talab etadi. An'anaviy pirometallurgik (Velslash) usulida tiklovchi sifatida ko'p miqdorda qo'shiladigan koksning qo'llanilishini bartaraf etish, klinker hosil bo'lishini oldini olish orqali kekdagi qimmatbaho komponentlarni ajratib olishni osonlashtirish, chiqindi gazlarning hosil bo'lishini kamaytirish orqali "yashil texnologiyalarni" qo'llab-quvvatlash, nafaqat respublikamiz balki xorijiy mamlakatlar ishlab chiqarish sanoatida ham muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Dissertatsiyaning **“Rux ishlab chiqarish keklarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishning tadqiqot obyektlari va usullarini tanlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlarining tanlab olinishi bayon etilgan. Tadqiqot uchun tanlab olingan texnogen chiqindi rux keking kimyoviy va fazaviy tarkiblarining tahlillari taqdim etilgan bo'lib, ularning kimyoviy hamda fizikaviy xossalarini o'rganishda zamonaviy usul va dastgohlardan foydalanilgan. Tadqiqotning asosiy obyektlari sifatida “Olmaliq KMK” AJ rux zavodining rux keklari tanlangan bo'lib, kekdagi ferritlar miqdorini kamaytirish uchun qattiq ugle-


1-jadval

Rux keking kimyoviy tarkibi

Namunalar	(miqdor %)											
	Zn	Cu	Fe	Ca	S	Pb	Si	Al	Mg	O ₂	Cd	boshqalar

№1	22,05	2,63	17,14	1,66	8,62	3	1,06	0,57	0,30	37,70	0,3	4,97
№2	25,32	7,82	16,77	1,82	14,60	2	1,23	-	0,41	27,25	0,2	2,58

rod saqlovchi tiklovchi o'rniga tiklovchi gazdan foydalanish taklif etilgan va tarkibida tiklovchi gazlar saqlagan, Angren ko'mir konida ko'mirni yerostida gazlashtirish natijasida olingan energetik gazlardan foydalanilgan. Asosiy sinov-tajriba olib boriladigan moddalar vodorod, is gazi, metan, rux ferriti ($ZnFe_2O_4$), magnetit (Fe_3O_4) va rux sulfati ($ZnSO_4$) bo'lgan. Rux kekinging kimyoviy tarkibi 1-jadvalda va spektrogrammasi 3-rasmda keltirilgan.



Rasm. 3. Rux kekinging to'liq yuzasini (xaritalash usuli) o'rganish uchun EDS tahlili

O'rganilayotgan rux kekinging tarkibini tashkil etgan minerallar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish maqsadida kek namunasi rentgen fazali tahlil qilindi. Tahlil natijalari 2-jadvalda, uning umumiy difraktogrammasi esa 4-rasmda keltirilgan.


2-jadval

Kekidagi rux va temirning mineralogik tarkibi

Namunalar	Miqdori, %						
	Zn _{um}	ZnO	ZnFe ₂ O ₄	ZnO·SiO ₂	ZnS	ZnSO ₄	boshqalar
Rux miqdori	22,89	2,54	8,45	1,96	1,87	8,07	8,07
Taqsimlanishi %	100	11	37	8,5	8,2	35,3	35,3
	Fe _{um}	FeO	ZnFe ₂ O ₄	Fe ₃ O ₄	FeS ₂	ZnSO ₄	boshqalar
Temir miqdori	16,72	0,69	13,97	1,04	0,50	0,07	0,46
Taqsimlanishi %	100	4,13	83,55	6,22	2,99	0,42	2,75

Tadqiq qilingan rux keki tarkibidagi ruxning mineralogik tuzilishlarining rentgen difraktometrik spektral tahlili (Rasm 4.) 2-jadvalda taqdim etilgan qiymatlarni tasdiqlaydi.

Inert tiklovchi muhit sifatida “O‘zbek ko‘mir” AJ “Yerostigaz” konida ko‘mirni gazlashtirish orqali hosil bo‘lgan energetik gazlaridan foydalanilgan. Energetik gazlarning o‘rtacha kimyoviy tarkibi %: CO — 4.6, CO₂ – 22.1, H₂ – 19.2, CH₄ – 3.0, H₂S – 0.5, N₂ – 50.1, O₂ – 0.5, C_nH_m — 0.2.



Rasm. 4. Rux kekidagi ruxning fazaviy tarkibining rentgen diffraktometrik spektri


Dissertatsiyaning “**Rux keklarini kuchsiz tiklovchi gazlar atmosferasida qayta ishlashning asosiy texnologik parametrlarini aniqlash**” deb nomlangan uchinchi bobida quruq kukunsimon rux keklarini qayta ishlash mobaynida undagi ruxning mineralogik tuzilishi va kekda qolib ketishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va tahlil qilish, keklarni tiklovchi gazlar atmosferasida qayta ishlashda kek-tiklovchi gazlar sistemasida sodir bo‘ladigan tiklanish reaksiyalarining termodinamik jihatlarini o‘rganish va tiklanish jarayoni murakkab reaksiyon sharoitida sodir bo‘lish sabablarini aniqlash hamda tahlil qilish tadqiqotlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Rux keklari tarkibidagi metall oksidlarini tiklovchi gazlar aralashmasida tiklovchi kuydirish orqali qayta ishlab optimal tarkibli kuyindi olish jarayonining termodinamik jihatlarini tahlil qilindi. Energetik gazlar tarkibidagi vodorod, is gazi va metan ishtirokida rux ishlab chiqarish keklari tarkibidagi shpinel tuzilishli rux ferritini va ferrit tiklanishidan hosil bo‘lgan magnetit, vyustit va rux oksidlarini va sulfatli birikmalarni tiklash jarayonlarining kimyoviy reaksiyalarini va shu reaksiyalarning borish mexanizmi tuzildi. Haroratning ortishi kukunsimon rux keki tarkibidagi metall oksidlarini tiklovchi gazlar yordamida tiklanish kimyoviy reaksiyalarida Gibbs energiyasi qiymatlarining o‘zgarishi natijalari (Rasm 5.) hamda muvozanat konstantasiga ta’siri (Rasm 6.) tadqiq qilindi. Bu tiklanish reaksiyalarining barchasi ijobiy ko‘rsatkichlarga ega. Ya’ni barcha kimyoviy reaksiyalar amaliy jihatdan sodir bo‘ladi. Rux ferritining tiklanishining boshlang‘ich harorati 500-600 °C oralig‘ida kechadi. Vodorodotermik, metanotermik va karbotermik reaksiyalarning termodinamik tahlilidan olingan natijalar qiymatlari va shu qiymatlardan olingan xulosalar ishlab chiqarishdan


olingan tajriba natijalari bilan solishtirildi va bu qiymatlar bir-biriga to'liq mos kelishi aniqlandi.

Kukunsimon kek tarkibidagi ferritni tiklovchi gazlar bilan tiklash jarayonining mantiqiy va oson mexanizmi ishlab chiqildi va bu mexanizmga binoan, ferrit tilovchi gaz kontakt chegaralarida oqib o'tadigan kimyoviy reaksiyalarning termodinamik jihatlari o'rganildi.

Standart sharoit uchun qilingan termodinamik hisoblashlar natijasida reaksiyon sistemada eng tez boradigan 2,6,7,10 - kimyoviy reaksiyalar ekzotermik va standart



Rasm. 5. Rux keki va tiklovchi gaz sistemasida oqib o'tadigan tiklanish reaksiyalarining umumiy Ellingem diagrammasi



Rasm. 6. Rux kekining tiklovchi gazlar bilan tiklanish jarayonida muvozanat konstantasini haroratga bog'liq ravishda o'zgarishi grafiqi


sharoitda mustaqil ravishda bora oladi (faqatgina aktivlanish energiyasi berilishi shart). Lekin 1,3,4,5,8,9,11,12-reaksiyalar endotermik va standart sharoitda ularning erkin energiyasi musbat qiymatlarni namoyon qildi. Bu esa mazkur reaksiyalarni standart sharoitda o'z-o'zidan sodir bo'lmasligini bildiradi. Bu reaksiyalarning borishi uchun yuqori haroratlar talab etiladi.

Oksid va vodorod, is gazi va metan sistemasida oqib o'tadigan barcha vodorodotermik, karbotermik va metanotermik reaksiyalar ichida eng sekin boradigan (limitlovchi) reaksiyalar (12,9,11,4) rux oksidining vodorod bilan tiklanish reaksiyasi bo'lganligi sababli reaksiya to'liq oqib o'tishi uchun sistemaning optimal harorati aynan shu rux oksidining tiklanish reaksiyasi harorati bilan aniqlanadi.


Lekin tadqiqotning maqsadi rux kuyindilarini kuchsiz tiklovchi xususiyatga ega bo'lgan gazlar atmosferasida tiklash bo'lganligi sababli sistemadagi rux oksidi va temir (II)-oksidlarining dastlabki metallik holiga qadar tiklanishi shart qilib olinmagan. Shuning uchun reaksiyon sistemada rux ferriti va magnetitning tiklanishi kuchsiz tiklanish shartini qanoatlantiradi. 5-rasmda tasvirlangan grafikdan shuni ko'rishimiz mumkinki, endotermik reaksiyalarni inobatga olgan holda rux ferriti va magnetitning tiklanish jarayonlarining erkin energiyalarini solishtiradigan bo'lsak, bunda limitlovchi reaksiya rux ferritining vodorod bilan tiklanishidir.

Rux ferritining tiklanish jarayonining boshlanish nuqtasi 587 °C haroratga muvofiq keldi. Ushbu haroratda magnetitning vodorod bilan tiklanish ehtimolligi juda yuqori. Jarayonning optimal haroratini aniqlashda uning kinetik xarakteristikasini ham bilish talab etiladi. Shuning uchun Gibbs energiyasi qiymatlaridan foydalanib, kimyoviy reaksiyalarning muvozanat doimiyliklari aniqlandi (Rasm 6.).

Shuningdek tiklovchi kuydirish jarayonida turli haroratlar intervalida mahsulotlarning jarayonga ta'siri, parchalanishi va tiklanishi 9-rasmda, hamda tiklovchi gazlar bilan rux keklarini velsevlashda haroratning 100 °C dan 750-950 °C




Rasm. 7. Ferrit va vodorod sistemasida oqib o'tadigan tiklanish reaksiyasining ΔG qiymatlari




Rasm. 8 Magnetitning vodorod bilan tiklanish reaksiyasining ΔG qiymatlari

gacha $L50 \times d3,5$ metr o'lchamli pech uzunligi bo'ylab o'zgarish gradienti, gaz oqimi va kek qatlami haroratlarining o'zgarishi 10-rasmda keltirilgan.



Rasm. 9. Kuydirish jarayonida turli haroratlar intervalida mahsulotlarning jarayonga ta'siri, parchalanishi va tiklanishi



Rasm. 10. Tiklovchi gazlar bilan rux keklarini velsevlashda haroratning pech uzunligi ($L50 \times d3,5m.$) bo'ylab o'zgarishi

Rux keki tarkibidagi oksidli birikmalarni qattiq tiklovchilar bilan tiklash jarayonida oksidlarning tiklanishi qay usul bilan kechishini o'rganish bo'yicha

izlanishlar natijasiga ko'ra tiklanish adsorbsion-avtokatalitik nazariyasi bo'yicha tiklovchi gazning oksidlar sirtiga adsorbsiyalanishi va kislorod bilan bog'lanib tiklangan metall yuzasidan ajralib chiqishi bilan kechishi aniqlandi.

Qilingan termodinamik tahlilga ko'ra, 750 – 850 °C haroratlar oralig'ida rux ferritining tiklovchi gazla ishtirokida tiklanish reaksiyasining muvozanat doimiyligi qiymati yuqori bo'ldi. Bu holat tiklanish reaksiyasining amalda oqib o'tish ehtimolligi ancha yuqori ekanligini bildiradi.

Dissertatsiyaning **“Rux keklarini qayta ishlash jarayonining asosiy texnologik parametrlarini aniqlash tadqiqoti”** deb nomlangan to'rtinchi bobida natijalarni sinovdan o'tkazish, rux keklarini tiklovchi gazlar atmosferasida qayta ishlab, past kislotali sulfat kislotasida yaxshi eriydigan kuyindi mahsulot olish texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy qilinishi yoritib berilgan. Dastlab rux keklarini laboratoriya sharoitida quvursimon aylanmali pechda (SNOL-750-LTVP) tiklovchi gazlar bilan tiklovchi kuydirish va gazsimon tiklovchi bilan qattiq mahalliy tiklovchilarni solishtirish maqsadida dinamik rejimda mufel pechida (SNOL-1,6.2,5.1/9-IZ) Sharg'un ko'miri va faollangan ko'mir bilan tiklovchi kuydirish tadqiqotlari olib borildi. Sanoat tajriba sinovlari stasionar rejimda sanoat vels pechida va dinamik rejimda elektr qarshilik pechida (CTH-1,6.50.0,7-4/9-II1) o'tkazildi.


Yanchib, quritilib tayyorlangan -0.1 mm yiriklikdagi rux keklari namunalari quruq holda pechga yuklandi va termodinamik hisobotlar natijasida olingan qiymatlarga asosan harorat 700-900 °C intervalida har 5 birlikka oshirib borildi. Tiklovchi kuydirish davomiyligi 50 daqiqadan 70 daqiqagacha bo'lgan vaqt oralig'ida har 5 daqiqa farq bilan amalga oshirildi. Har bir belgilangan davomiylikda (masalan 60 daqiqa) uch xil 150-200-250 gr massadagi namunalari tiklovchi gazlar miqdorlarining farqi daqiqasiga 1,5-2-2,5 litr miqdorda pechga uzatib turildi. Har bir vaqt intervalida olib borilgan tiklovchi kuydirishdan olingan kuyindi 0,9 litr/min. N₂ gaz oqimi muhitida xona haroratigacha sovitildi. Sovigan kuyindi pechdan chiqarib olinib massasi o'lchandi va bir qismi tahlil qilish uchun yuborildi. Qolgan qismi -100 mkm o'lchamgacha hovonchada yanchilib tanlab eritish tajribasiga yo'naltirildi.

